



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

“O'ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2022-yil 19-oktabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMI DAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

“O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK MASALALARI”

mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2022-yil 19-oktabr

Toshkent – 2022

2. Jargon belgisi sifatida o'smirlilik davrining psixologik ehtiyojlari va qobiliyatlariga to'liq javob beradi. Bunda jargon yoshlarni birlashtirish va ularni boshqa guruhlar va boshqa avlod vakillariga qarama-qarshi qo'yish vositasidir.

3. Har bir yangi davrning yigirma yoshli o'smirlari avvalgi davrning yigirma yoshlilariga o'xshab qolishni xohlamaydilar. Bu avlodlar almashinuvi, odamlar hayotida yangi narsalarning paydo bo'lishi, munosabat, did, odatlarning o'zgarishi jarayonini bilan bog'liq tarzda yuz beradi.

4. Yoshlar har qanday yangilikni yaxshi qabul qiladilar, yangicha moda va madaniyatning ta'siriga tez tushadilar.

Buning tasdig'i sifatida yoshlar foydalanadigan jargon leksikasining o'zgaruvchanligini aytib o'tishimiz joiz. Yoshlar jargoni har qanday tildagi eng qadimgi jargon guruhlardan biri bo'lsa-da, yoshlar jargonlari barqaror leksik tizim sifatida mavjud emas. Yoshlar jargonining leksik tarkibini doimiy ravishda yangilanib turishi uning ajralmas, o'ziga xos xususiyatidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, yoshlar jargoni tilning doimiy, "abadiy" quyi tizimlaridan biri bo'lib, miqdoriy jihatdan eng muhim va eng ochiq, leksik jihatdan beqaror.

Hozirgi vaqtda lingvistik tadqiqotchilarining fikriga ko'ra, til jargonizatsiyasida yetakchi rol o'ynaydigan yoshlar jargonidir. "Yoshlar jargonining asosiy lingvistik hodisasi yangilanish katalizatori bo'lib xizmat qiladi, alohida nutq birliklarining xususiy subtillardan adabiy xalq tiliga va xalq tilidan so'zlashuv adabiy tiliga o'tishi" [Химик, 2000: 11].

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yoshlar jargonining o'ziga xosligi uning tashuvchilari keng doirasidir. Bular talabalar va maktab o'quvchilari, giyohvandlar, sportchilar, sport klublari muxlislari, dasturchilar va shaxsiy kompyuter foydalanuvchilari va boshqalar.

Oddiy jargondan farqli o'laroq, yoshlar jargonida ko'pincha odam yoki vaziyatni ijobiy yoki salbiy, hatto ishtiyoq bilan baholaydi.

Yoshlar jargonining asosi, Ermakova O.P.ning fikriga ko'ra, talaba jargonidir. Talaba jargoni hayot va hayotning barcha sohalarini qamrab oladi, masalan, shaxslarning ismlari, o'quv yurtlari, fanlar, talabalik hayoti va boshqalar.

Yoshlar jargonlari kompyuter olimlari, rassomlar, jinoyatchilar, giyohvandlar jargonlari, shuningdek, xalq tili (jamiyatning adabiy til me'yorlarini yetarli darajada bilmaydigan, o'qimagan qismining tili) bilan faol ta'sir o'tkazadi. Hatto leksikograflar uchun har xil turdagi jargonlar o'rtasida chegara chizish qiyin.

Jargon ma'nolarini shakllantirishning asosiy mexanizmi - metaforadir. Talaba jargonidan misollar keltiraylik: dum - qarz, muvaffaqiyatsiz imtihon; pensiya - stipendiya; sindirish - imtihondan o'tish; savolga javob bermok - portlatib tashlamoq, yirtib tashlamoq; biz qayerda yashaymiz? - biz qaysi auditoriyada shug'ullanamiz?; quyoning rasmini chizmoq - darsdan qochmoq va hokazo.

Og'zaki metaforalar ham ko'p: g'isht - xunik; sindirmok - lol qoldirmok; uxlatmok - aldab ketmok; buqa bo'lmok - sport zalida shug'ullanmok; turshak - ozg'in odamga nisbatan; quloq - gap tashuvchi;

Jargon so'z yasallashining o'ziga xos xususiyati nimada, u adabiy tildagi so'z yasallashidan nimasi bilan farq qiladi?

Jargonning so'z yasallashida ifodalilik, o'ynoqi vazifa tilning boshqa sohalariga qaraganda yorqinroq namoyon bo'ladi. Jargonda so'z yaratish nafaqat yangi nominatsiyalarni yaratishga, balki yorqin, majoziy, ifodali so'zlarni yaratishga xizmat qiladi, ularning aksariyati adabiy tildagi neytral so'zlar va so'zlashuvdagi so'zlarining ekspressiv nusxalaridir.

Yoshlar jargoni yasallash va chetdan so'z olish hisobiga boyiydi.

Yoshlar jargonining chetdan so'z olish hisobiga boyishi uning zamonaviy til holati bilan bog'liq bo'lib, ijtimoiy jamiyatdagi faoliyatining o'ziga xos xususiyatidir.

Yoshlarning boshqa tillarga murojaat qilishlarining yoki yoshlar jargonida qarz olishning asosiy (adabiy tilda) sababi yo'q. Jargondagi boshqa tillardan olingan so'zlar allaqachon o'z nomiga ega bo'lgan tushunchalarni, narsalarni bildirish uchun ishlatiladi. So'z olishning asosiy vazifasi o'ziga xos va g'ayrioddiy ifodali nom berishdir.

Jargonlarning qo'llanishida ijtimoiy-psixologik sabablar birinchi o'ringa chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –B. 168.
2. Ларин Б.А. История русского языка и общее языкознание. - М.: Просвещение, 1977.
3. Крысин Л.П. О лексике русского языка наших дней // Русск. яз. В школе. - 2002. - №1. - С.3-7.
4. Мокиенко В.М., Никитина Т.Г. Большой словарь русского жаргона. - СПб.: Норинт, 2000. - С. 720.
5. Химик В.В. Поэтика низкого, или Просторечие как культурный феномен. - СПб.: Изд. СПб. Ун-та, 2000. - С. 272.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 2 жилд. –Т., О‘zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 2020. –B. 671.

ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MILLIY RUHIYATNING OMONIMLAR VOSITASIDA IFODALANISHI THE EXPRESSION OF THE NATIONAL SPIRIT IN THE HOMONYMS IN THE POETRY OF ERKIN VAHIDOV

Zarrina Muzaffarova*

Annotation. *In this article, the role of homonyms in the expression of the national spirit is analyzed in the poetry of Free Vahidov, while homonyms representing national values are distinguished in the poetry of the poet.*

Key words: *Nationality, homonyms, national mentality, homonymy, polyemia, tognis, national values.*

Tilda tovush tomoni va yozuv tomoni bir xil bo‘lib, ammo turlicha bir-biriga bog‘liq bo‘lmagan turli ma‘no ifodalovchi so‘z, qo‘shimcha, iboralar mavjud. Bunday birliklar omonimlar deb ataladi. Masalan: O‘t (“maysa, o‘simlik”), o‘t (“olov”), o‘t (harakatni bildiruvchi so‘z) kabi. Omonimiyaga olib keluvchi asosiy hodisalardan ya‘ni sabablardan biri birdan ortiq so‘zning talaffuz jihatdan tasodifan mos kelib qolishi. Bu hol asosan, o‘zga tillardan so‘z o‘zlashtirish natijasida yuzaga keladi. Bunda o‘zlashma so‘z bilan o‘z tilida mavjuda bo‘lgan so‘z yoki turli tillardan o‘zlashgan so‘zlar o‘zaro talaffuz jihatdan bir xil bo‘lib qoladi. Masalan, tojikcha bog‘ (“daraxtlardan hosil qilingan maydon”) bilan o‘zbek tilidagi bog‘ (bog‘laydigan narsa, bog‘lashdan hosil bo‘lgan tugun).

Omonimlarning yuzaga kelish sabablari har xildir. Xususan: 1. Tilda azaldan mavjud bo‘lgan ayrim so‘zlarning shakllari tasodifan teng bo‘lib qoladi: baqa (“qurbaqa”) va baqa (“suv tegirmonining parrakdan harakat olib, tegirmon toshini aylantiruvchi metall qismi”). 2. Bir ma‘noli so‘z leksik ma‘noning ko‘chishi oqibatida ko‘p ma‘noli so‘zga aylanadi, keyinroq bosh ma‘no va hosila ma‘no o‘rtasidagi bog‘lanish unutilib, bir so‘z negizida ikkita boshqa-boshqa leksema paydo bo‘ladi: kun (“quyosh”) – kun (“sutka”, “kun chiqqandan yana kun chiqqungacha bo‘lgan vaqt”) kabi. 3. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan ayrim leksemalar o‘zbek tilidagi u yoki bu leksemaga shaklan teng bo‘lib qoladi: toy (o‘zb. “otning ikki yashardan kichik bolasi”) – toy (f-t: “katta to‘p qilib taxlab yoki bosib bog‘langan mol va shu tarzda mol o‘lchovi”). 4. Boshqa tillardan o‘zlashtirilgan leksemalar orasida shaklan teng bo‘lgan so‘zlarning uchrashi omonimiyaga olib keladi: rasm (arabcha: “surat”) – rasm (arabcha: “urf-odat”). 5. Leksemalar yasalishi ham ba‘zan omonimlarni keltirib chiqaradi: qo‘noq (“tariq”) – qo‘noq (qo‘n+oq: “mehmon”) kabi. [Jamolxonov, 2015]

* O‘qituvchi, Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

Omonimiya bilan polisemiya o'rtasida ma'lum o'xshashlik bor: 1) ko'rinishda ifoda plani bitta bo'ladi. 2) shu plan anglatadigan birdan ortiq leksik ma'no bo'ladi. Ammo bunday o'xshashlikdan qat'iy nazar omonimiya bilan polisemiya o'zaro keskin farq qiladi. 1) polisemiya ifoda plani asli bitta bo'ladi. Omonimiyada esa odatda ifoda plani asli bittadan ortiq bo'lib, hozir o'zaro teng kelib qolgan bo'ladi. 2) polisemiya sememalar o'zaro biri ikkinchisiga bog'liq, shunga ko'ra bu sememalar bir leksema birlashadi. Omonimiyada esa sememalar o'zaro bog'liq bo'lmaydi yoki bog'liqlikni yo'qotgan bo'ladi, birlashmaydi.

3) Polisemiya birdan ortiq sememaga ega bir leksema haqida, omonimiyada esa ifoda planiga teng keluvchi ikki yoki undan ortiq leksema haqida so'z yuritiladi. Boshqa tillarda bo'lgani kabi o'zbek tilining shakldosh so'zlar tizimi o'zlashma, lug'aviy birliklar hisobiga kengaygan. O'zbek tili shakldosh so'zlar tizimini boyitishda arabcha lug'aviy o'zlashmalar alohida salmoqqa ega.

Omonimlar mumtoz adabiyotda tajnis san'ati va tuyuq janrini yaratishda, askiya payrovlarida esa so'z o'yini va qochiriy sifatida ishlatiladi. So'z ustalari, ayniqsa, shoirlar (Xorazmiy, Lutfiy, Navoiy, Bobur, So'fi Olloyor, Habibiy va boshqalar) poetik ta'sirchanlikni oshirishda omonimlardan mahorat bilan foydalanganlar. Xorazmiyning: "Bo'yung sarvu sanubartek, beling qil, Vafo qilgan kishilarga vafo qil" bayti yoki Alisher Navoiyning: "Olmani sundi nigorim – ol, –dedi, Olma birla bu ko'ngilni ol, – dedi. So'rdim ersa olmasining rangini, Ne so'rarsan? –olma rangi ol, dedi", – tuyug'i buning yorqin isbotidir. Dastlabki baytda qil so'zi ikki ma'noda (qilga o'xshash ingichka; qilmoq fe'lining o'zagi) ishlatilgan bo'lsa, tuyuqda ol so'zi uch ma'noda ishlatilgan (buyruq fe'li; ko'ngil ovlamoq; qizil rang, ol rang).

Omonimlar nutqda so'z o'yinlari, nutqning ta'sirchanligini oshirish, tuyuqlar hosil qilish uchun ishlatiladi. Erkin Vohidov she'riyatida ham aynan milliy ruhiyat, qadriyatlar, urf-odatlar ifodalangan o'rinlarda ham biz omonimlarga duch kelamiz.

Tong yorishar chog'ida har kun
Osmon **bo'yi** tomlardan osha
Ko'kka o'rlar ingichka tutun.
O'sha-o'sha, bizga beshikdan
Tanish xush **bo'y** taralar har yon.
Tongda har bir ochiq eshikdan
Rizqdek kirar bir juft issiq non. [Saylanma 2 jild, 71-bet]

Yuqorida adibning "Tandir" she'ridan olingan parchada milliy qadriyatlarimizdan hisoblanmish momolarimizning erta tongdan tandirda issiq non yopish jarayonlari aks etgan va shuni o'quvchiga mohirona tarzda ifodalab berish uchun shoir omonimlardan foydalangan. She'rda ikki o'rinda bo'y leksemasini ko'rishimiz mumkin:

Bo'y I – ot uzunlik o'lchami ma'nosida ya'ni bu o'rinda ham aynan o'lcham ma'nosida kelgan osmon bo'yi;

Bo'y II –ot(tojikcha) hid, is, ifor ma'nosida bu o'rinda yoqimli ifor is ma'nosida qo'llangan xush bo'y.

Shoirning mahorati shundaki, u bir so'zni turli ma'nolarda qo'llash orqali obrazlilikka erishgan. Bu o'rinda omonimik munosabat bir so'z turkumlari doirasida kuzatilmoqda. Shoir aynan bir she'rning o'zida omonimlardan foydalangan. Ijod namunasining har bir satrida milliy ruh xalqona ifoda sezilib turadi. Ijodkor omonimlardan o'rinli foydalangan holda chiroyli tasvir yaratilishiga erishgan. Erkin Vohidov she'riyatini tahlil qilar ekanmiz adib she'rlarida omonimlarning qo'llanishini 2 guruhga ajratib o'rganamiz: birinchi guruhda bir she'r doirasida adibning omonimlardan foydalanish mahorati; ikkinchi guruhda esa so'zlarning turli o'rinlarda omonimlik hosil qilishi.

Adib "Olma" nomli she'rida ol va olma so'zlaridagi shakldosh so'zlar orqali o'zbek xalqiga xos bo'lgan ajoyib qadriyatimiz hisoblanmish mehmondo'stlik haqida bolajonlarimizga soddagina qilib yetkazib berish ularning ongiga shu urf-odat qadriyatlarimizni singdirish, so'z boyligining oshishiga, tilimizda ana shunday bir-biriga o'xshash so'zlar borligi va ularning har xil ma'noda bo'lishini anglatishga harakat qiladi:

Olma eksa bog'iga har kim,
Mehmoniga, o, ye, demasmi? –
“Olma” mening mehmondo'st xalqim –
Odatiga yot so'z emasmi?

Olma I ot, meva o'z ma'nosida qo'llangan;

Olma II fe'l, “olmoq” fe'li va -ma bo'lishsizlik shakli orqali yasalgan va ot so'z turkumidagi so'z bilan omonimlik hosil qilgan.

Qozoqning ardoqli o'g'li –O'ljasi
O'zbek she'rxonining bo'ldi o'ljasi.
O'zbekning uyida bukun mehribon
Egizak og'asi bo'lmoqda mehmon.

Yuqorida keltirilgan misralarda ham E. Vohidovning so'z qo'llash mahorati beqiyos ekanligiga guvoh bo'lamiz. Bu baytda O'ljas kishi nomi bilan o'lja leksemasiga, egalik shakli hosil qiluvchi -i va -si qo'shimchalari qo'shilishi natijasida o'zaro omonimlik hodisasi yuzaga kelgan.

O'ljasi I – ot, kishi nomiga -i egalik shakli yasovchi qo'shimcha qo'shilgan;

O'ljasi II – ot, ya'ni asl ma'nosi “*Ov qilib ushlangan, qo'lga olingan narsa. Burgutning o'ljasi*”. Ushbu gapda ko'chma ma'noda qo'llanilib, -si egalik shakli qo'shilgan va omonimlik hosil qilgan.

Bizga ma'lumki, O'ljas Sulaymonov qozoq millatining faxrli shoirlaridan biri hisoblanadi, aynan O'ljas Sulaymonovning bizning yurtimizga tashrifi va o'zbek she'rxonlarining ijobiy ma'noda o'ljasiga aylanishi, ya'ni muxlislari tomonidan juda xursandchilik bilan kutib olinishi, xalqimizning mehmondo'stlik va bag'rikenglik qadriyatlarini juda chiroyli so'z o'yini va tashbexlar bilan ochib bergan.

Professor Nurboy Jabborov ta'kidlaganlaridek, milliy qadriyatlar talqini she'riyatda milliy ruh ifodasining eng muhim shartlaridandir. Millat mavjudligi va milliy ruh asosi bo'lgan ona tiliga muhabbat g'oyasi Erkin Vohidov she'riyatida o'ziga xos talqin etilgan. Erkin Vohidovning aynan ona tilimizga bag'ishlab yozilgan she'rilarida ham omonimik hodisalarga va o'rinlarga duch kelamiz. Omonimlar she'riyatda qo'llanganda o'zgacha tasvir yaratishga xizmat qiladi.

Dasturxonda Xorazmning
Qirqmasidan bir **tilim**,
Yulduzli ko'k sahnidagi
Hilolaga o'xshaydi.[4,20]

Ona **tilim**!

Mehring bu qadar
O'rtaguvchi ekan jonimga.
Asir bo'lib lolu musaxxar
Termulaman Ilza xonimga. [4,20]

Yuqoridagi satrlarda tilim so'zidagi omograflik turli so'z turkumlari doirasida sodir bo'lmoqda. Tilim I. “Ko'p joyidan tilingan yoki bir necha uzun-uzun tilingan, yorilgan yoki tilimlangan” ma'nosini anglatadi, bu o'rinda ot so'z turkumiga oid leksemani ifodalab kelgan. Xorazm eliga xos bo'lgan qovun turining bir bo'lagini ya'ni qismini atab kelgan. Bu ham bizning millatimizning jannatmakon yurt ekanligini ta'riflash uchun ifodalangan mohirona usuldir.

Tilim II “Ilza xonimga” she'rida qo'llangan tilim (ot + (im) egalik shakli hosil qiluvchi qo'shimcha). Birinchi misoldagi tilim (fel + (im) so'z yasovchi qo'shimcha).

Tilim II til+im (ot + egalik qo'shimchasi) – “kishilar o'rtasida, jamiyatda o'zaro fikr almashishning vositasi, tilshunoslikning asosiy o'rganish obyekti”, sifatida o'zaro omonimlikni yuzaga keltirgan va milliy ruhiyatni namoyon etishda yaqqolroq ifodalashga xizmat qilgan. Har qanday xalq she'riyatining o'ziga xosligini, uning qadriyatlarini namoyon etadigan eng muhim omil milliy ruhdur. Milliy ruhning she'riyatda o'z ifodasini topishida esa aynan til vositalarining